

Djumakulova Kamila Abduraxmanovna

O‘zbekiston Respublikasi

Favqulodda vaziyatlar vazirligi

Fuqaro muhofazasi instituti katta o‘qituvchisi

AHOLINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKATLANISHGA

TAYYORLASH SOHASIDAGI TA’LIM BERISHNING AMALDAGI HOLATI VA

MAVJUD MUAMMOLAR

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida aholining favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash tizimining amaldagi holati hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Aholini o‘qitishning me‘yoriy-huquqiy asoslari, turli toifadagi fuqarolarni qamrab olish darajasi, tegishli tashkilotlar faoliyati va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. O‘qitish samaradorligini oshirish, amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish va o‘quv-uslubiy ta‘minotni takomillashtirish zarurati alohida ta’kidlangan. Shuningdek, o‘quv soatlarining yetarli emasligi va ayrim aholi qatlamlarining to‘liq qamrab olinmaganligi kabi muammolar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi, aholini o‘qitish, xavfsizlik, tayyorgarlik, me‘yoriy-huquqiy asos, qutqaruv xizmati, hayot faoliyati xavfsizligi.

Джумакулова Камила Абдурахмановна

Старший преподаватель института гражданской защиты

Министерства по чрезвычайным ситуациям

Республики Узбекистан

ДЕЙСТВУЮЩЕЕ СОСТОЯНИЕ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ

НАСЕЛЕНИЯ ДЕЙСТВИЯМ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ И

СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ В ДАННОЙ СФЕРЕ

ПОДГОТОВКИ

Аннотация. В статье рассматривается современное состояние системы обучения населения действиям в чрезвычайных ситуациях в

Республике Узбекистан, а также существующие проблемы в данной сфере. Анализируются нормативно-правовые основы подготовки населения, охват различных категорий граждан обучением, деятельность профильных учреждений и применение современных образовательных технологий. Особое внимание уделяется вопросам повышения эффективности обучения, расширения практических занятий и совершенствования учебно-методического обеспечения. Выявлены основные проблемы, связанные с недостаточным количеством учебных часов, ограниченным охватом отдельных категорий населения и необходимостью дальнейшего совершенствования системы подготовки.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, гражданская защита, обучение населения, безопасность, подготовка, нормативно-правовая база, спасательные службы, безопасность жизнедеятельности.

Kamila Abdurakhmanovna Dzhumakulova
Senior Lecturer of the Civil Protection Institute
of the Ministry of Emergency Situations
of the Republic of Uzbekistan

**Current State of the System for Training the Population to Act in
Emergency Situations and Existing Problems in This Field of Preparedness**

Abstract. The article examines the current state of the population training system for actions in emergency situations in the Republic of Uzbekistan, as well as the existing challenges in this field. It analyzes the regulatory and legal framework for public preparedness, the coverage of various categories of citizens through training programs, the activities of specialized institutions, and the application of modern educational technologies. Particular attention is paid to improving the effectiveness of training, expanding practical exercises, and enhancing educational and methodological support. The study identifies key issues related to the insufficient number of training hours, limited coverage of

certain population groups, and the need for further improvement of the preparedness system.

Keywords: emergency situations, civil protection, public training, safety, preparedness, regulatory and legal framework, rescue services, life safety.

Aholini FVlarda harakat qilishga tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bir qator Qonun va qarorlar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi [10].

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli FVlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda aholini FVlarda harakat qilishga o‘rgatish umumiy va majburiydir deb belgilab qo‘yilgan [1]. Qonunda aholining keng qatlamlarini, jumladan, o‘rta maktablar, o‘rta-maxsus ta’limi muassasalari oliy o‘quv yurtlarida, malaka oshirish muassasalarida, kurslarda maxsus uslubiyat markazlarida, ish joylarida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, 2019-yil 9-sentyabr kuni qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-sonli qarori va unga ilova qilingan, aholining barcha qatlamlarini tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini belgilovchi Nizom ishlab chiqilgan[10].

Nizomga muvofiq, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning asosiy vazifalari belgilab berilgan, ya’ni:

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, ishchi va xizmatchilarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi bo‘yicha bilimlarini izchil oshirib borish va ko‘nikmalarini hosil qilish;

- qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorlash;

- aholini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmaganlarni, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o'rgatish.

Qarorga muvofiq, barcha aholi qatlamlari quyidagi toifalarga bo'lingan holda tayyorgarlikdan o'tkaziladi:

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholi, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarini;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar[10].

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash borasida vazirliklar, tashkilot va muassasalarga, xususan soha yo'nalishi bo'yicha ilmiy-uslubiy markaz sifatida - Fuqaro muhofazasi instituti oldiga mas'uliyatli vazifalarni, jumladan, aholini barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali o'quv qurollari, videodarsliklar yaratish, targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etish, ko'chma mashg'ulotlar, treninglar o'tkazish belgilangan.

Shu o'rinda Fuqaro muhofazasi instituti professor-o'qituvchilari tomonidan aholining barcha toifalariga mo'ljallangan o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratib kelinmoqda. Xususan, shulardan ayrimlariga to'xtalamiz.

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun. Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan xolda "Hayot xavfsizligi asoslari" plakatlar majmuasi, "Yosh qutqaruvchi!" deb nomlangan kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'yash uchun al'bom, "Sergak va ogoh bo'!" didaktik materiallar to'plami, "Xavfdan xoli yashamoq" uslubiy qo'llanmasi, "Zilzila sodir bo'lganda to'g'ri harakat" videorolik ssenariysi.

2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun. "Hayot xavfsizligi asoslari" plakatlar majmuasi, "Hayot xavfsizligi asoslari" uslubiy qo'llanmasi hamda didaktik materiallar, "Maktabda fuqaro muhofazasi kuni" metodik tavsiyasi, "O'quvchilarning xavfsizlik pasporti", "Umumta'lim maktablari direktorlari uchun favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar", "Bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirish oromgohlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda dam oluvchilarni to'g'ri harakat qilishga tayyorlash" uslubiy qo'llanmasi.

3. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi uchun. "Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda aholining harakati" plakatlar to'plami", 3 tomdan iborat "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asosi", "Evakuatsiyani tashkil etish" uslubiy qo'llanmasi, "Favqulodda vaziyatlar" qichqacha ruscha-o'zbekcha ensiklopedik izohli lug'at.

4. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmagan aholi uchun. "Favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari bo'yicha tavsiyalar", "Birinchi yordam ko'rsatish qoidalari", "Favqulodda vaziyatlar tarixidan: zilzila" kabi qo'llanmalar, eslatma va broshyuralar yaratilgan.

Aholini FVlarda harakat qilishga tayyorlashdan tashqari, aholini maxsus davrda yuzaga keladigan FVlarda harakat qilishga tayyorlash ham ko'zda tutilgan, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida FVV zimmasiga aholining FM sohasida o'rgatilishini tashkil etish hamda 10-moddasida Mahalliy hokimiyat organlariga

tashkilotlar rahbarlari va aholining zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilgan paytda himoyalani usullariga o'rgatilishini tashkil etish belgilab qo'yilgan. Ushbu Qonunning 16-moddasida esa umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, ishlab chikarish va yashash joylarda aholini FM sohasida o'rgatish umumiy va majburiy ekanligi, FM sohasida rahbarlar va mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirish muassasalari, maxsus o'quv-uslubiyot markazlarida, kurslarda, shuningdek, ish joyida amalga oshirilishi, bilimlarni targ'ib qilish davlat organlari, shuningdek, odamlarni muhofaza qilish va qutqarish borasidagi tegishli jamoat birlashmalari tomonidan ta'minlanishi, bilimlarni targ'ib qilish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkinligi belgilab qo'yilgan [2]. "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida ham qutqaruvchilarga "Aholini va hududlarni FVlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ'ib qilish, aholini hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlar xodimlarini FVlar sharoitida harakat qilishga tayyorlashda ishtirok etish" vazifasi yuklatilgan [3]. Aholining barcha qatlamlarini tayyorlash, shuningdek, yuqorida to'xtalib o'tgan qarorda ham belgilab qo'yilgan [9].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida"gi Nizomda FVDTning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari belgilangan [9].

Vazirlar Mahkamasining 606-sonli qarori 1-ilovasida aholini, mansabdor shaxslarni hamda FVDT tuzilmalarini FVlarda harakat qilishga tizimli tayyorlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish ishlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda olib borilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

- FVDT va FM kuchlari respublika va mahalliy organlar mansabdor shaxslarini, mutaxassislarni tayyorlash tizimini tashkil qilish, rivojlantirish, aholini va hududlarni FVlardan muhofaza qilish hamda FM bo'yicha kompleks tadbirlar bajarilishini ta'minlash;

- Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlarining fuqarolar, vazirlik, idoralar, tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslarini, shuningdek umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarni FVlarda harakat qilishga va ularning oldini olishga tayyorlash bo'yicha o'quv-uslubiy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish;

- aholini, boshqaruv organlari va FM tuzilmalari, FVDT bo'linmalari mansabdor shaxslarini tayyorlash, FVlarda harakat qilishga o'rgatish dasturlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish, tasdiqlash yoki kelishish FVlarning oldini olish, avariya va halokatlar, tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish va ularda harakat qilish, hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash, FVlarda harakat qilishga aholining barcha toifasini safarbar etish bo'yicha aholi o'rtasida bilimlarning keng tarqatilishini ta'minlash;

- qarorda aholini FVlardan muhofaza qilishga tayyorlash jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash va ulardan keng foydalanilishni ta'minlash alohida qayd etilgan [11].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 208-sonli qarorida zilzila bilan bog'lik FVlarda aholining to'g'ri harakat qilish bo'yicha ko'nikmalarini oshirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan:

- maktabgacha yoshdagi bolalar, umumta'lim maktablari o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talabalari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi uchun zilzila xavfi bo'lganda va yuz berganda aholining harakat qilishi bo'yicha ko'rgazmali o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish va nashr etish;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahallalarida “Zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan FVlarda (tabiiy va texnogen tUSDagi) aholining o‘z vaqtida va mutanosib harakat qilishi mavzusida ko‘rgazmali mashq va taktik-maxsus mashqlarni tashkil etish va o‘tkazish;

- har yili zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan FVlar (tabiiy va texnogen tUSDagi) yuzaga kelishining xususiyatlari va sabablarini, shuningdek zilzilalar xavfi tug‘ilganda aholining amaliy harakatlarini ochib beradigan turli ilmiy-ta‘lim ommabop qisqa metrajli fil‘mlar va videoroliklar yaratish;

- ta‘lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan FVlar (tabiiy va texnogen tUSDagi), shuningdek, zilzilalar yuz berishi mexanizmlari, ular yuz berganda aholini ogohlantirish va uning tezkorlik bilan harakat qilish choralari to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi ma‘rifiy xususiyatga ega bo‘lgan animatsion, mul‘timediyali va boshqa o‘quv materiallarini ishlab chiqish;

- FVVning veb saytida “FV: unda qanday harakat qilmoq kerak?” ruknini tashkil etish, uni zilzilalar oqibatida yuz bergan FVlarda (tabiiy va texnogen tUSDagi) profilaktikaga va aholining harakat qilishiga tegishli metodik materiallar bilan doimiy ravishda to‘ldirib borish.

Aholini FVlarda harakat qilishga tayyorlash ishlarining yanada takomillashtirish maqsadida 208-sonli qarorda aholini o‘qitish bilan qamrab olishni kengaytirish ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda quyidagilar belgilab qo‘yilgan:

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘quvchilarini (belgilangan o‘quv soatlari doirasida) va oliy ta‘lim muassasalari talabalarini (bir o‘qituvchiga talabalar soni nisbatining belgilangan normativlari doirasida) o‘qitish dasturiga “Hayot xavfsizligi” o‘quv kursini joriy etish;

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari "Hayot xavfsizligi" o'quv kursi bo'yicha malakali o'qituvchilar bilan butlash choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- FVVning FM institutida ta'lim muassasalarining rahbarlari tarkibini zilzilalar yuz berganda harakat qilishga o'qitish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish;

- sinovdan o'tgan "Sog'lik va hayot xavfsizligi asoslari" va "Hayot xavfsizligi asoslari" o'quv kurslarini nashr etish va respublikaning barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarini ta'minlash;

- "Hayot xavfsizligi", "Sog'lik va hayot xavfsizligi asoslari" va "Hayot xavfsizligi asoslari" o'quv kurslarini ishlab chiqish, ularni respublika ta'lim muassasalari pedagog kadrlar malakasini oshirish institutlarining o'quv rejalariga kiritish;

- yuzaga kelgan FVlarda (tabiiy va texnogen tushdagi) harakat qilish qoidalarini ko'rsatgan holda o'quvchilarning xavfsizlik pasporti na "Maktab o'quvchisining shaxsiy xavfsizligi" qo'llanmasini o'zbek, qoraqalpoq, rus tillarida va boshqa tillarda (hammasi bo'lib yettita tilda) nashr etish;

- FVVning FMI negizida ta'lim oluvchilarda zilzilalar paytida o'z vaqtida va mutanosib harakat qilish ko'nikmasini hosil qilish maqsadida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun tegishli yolg'ondakam holatlar trenajyorlari bilan jihozlangan maxsus joy tashkil etish;

- O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi kanallarida manfaatdor vazirliklar va idoralar vakillarini jalb etgan holda "Hayot xavfsizligining dolzarb masalalari" mavzusida axborot-ta'lim beruvchi teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar turkumlarini, shuningdek "Hayot xavfsizligi bilimdoni" viktorinasini tashkil etish;

- Respublika gazeta va jurnallarida "FVV xabar beradi", "FVlarda harakatlanish", "Hayot xavfsizligi" va shu kabi ruknlar tashkil etish [13].

Aholini FVlarda harakat qilishga tayyorlash sohasida olib borilayotgan tadbirlarga qaramasdan 5066-sonli Prezident Farmonida aholini va hududlarni FVlardan muhofaza qilish vakolatiga ega rahbarlar va mansabdor shaxslar tomonidan ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda fuqarolarni FVlar sodir bo'lganda harakat qilishga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish hamda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda aholini, mansabdor shaxslarni hamda FVlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tuzilmalarini FVlarda harakat qilishga tizimli tayyorlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, belgilab qo'yilgan [8].

3030-sonli Prezident qarorida ham FVlarning oldini olish va harakat qilish, tabiiy ofatlar, avariya va halokatlar oqibatlarini bartaraf etish, hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash, aholining barcha toifalarini FVlarda harakat qilishga safarbar etishga doir bilimlarni aholi o'rtasida ommalashtirish belgilab qo'yilgan.

Qarorda FVlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash borasida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

- aholining barcha guruhlariga FVlardan muhofaza qilish qoidalarini va asosiy usullarini, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini, jamoa va yakka tartibda himoya vositalaridan foydalanish qoidalarini o'rgatish;

- boshqaruvning barcha darajadagi rahbarlarini aholini FVlardan muhofaza qilish bo'yicha harakat qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish uchun kuchlar va vositalarni tayyorlash va ularni boshqarish ko'nikmalarini hosil qilish, FVlarda harakat qilishda xodimlarning o'z vazifalarini amaliy egallashi.

3030-sonli Prezident qarori bilan FVV HFXO'Mga fuqarolarni hamda vazirliklar, idoralar, tashkilot va korxonalar, mahalliy davlat hokimiyati

organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari rahbar kadrlarini tayyorlash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb- hunar va oliy o'quv muassasalarining o'quvchi yoshlarini FVlarning oldini olish va sodir bo'lganda harakat qilishga tayyorlash bo'yicha faoliyatiga o'quv-uslubiy rahbarlik qilish vazifasi yuklatilgan [11].

Ushbu vazifadan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi FVVning 140-sonli buyrug'i bilan aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, aholini FVlarda harakat qilishga tayyorlash masalasi, Qonun, qaror, buyruq va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lib, bunda me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aholini FVlarda harakat qilishga tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilgan.

Shunga qaramasdan yutuqlarimiz bilan birga hal etilishi lozim muammolar ham mavjud. Jumladan,

- maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining malakasini oshirish 144 soatlik kurslarida "Hayot xavfsizligi asoslari"ga faqatgina 2 soat vaqt ajratilgan;

- umumta'lim maktablarida "Hayot xavfsizligi asoslari" fan sifatida o'qitilmaydi, integratsiyalangan holda, fanlar tarkibida o'qitilmoqda, o'quv soatlar soni ham juda oz, (fikrimizcha "Odobnoma" darslarini oilada o'rganish mumkin, lekin hayot xavfsizligi asoslarini mutaxassis o'rgatishi lozim);

- ayrim korxonada muassasa va tashkilotlarda ishchi-xizmatchilarning tayyorgarlik darajasi yetarli emas;

- aholining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmagan qatlami, shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, xorij mamlakatlari fuqarolarining tayyorgarligiga e'tibor yetarli darajada qaratilmagan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, barcha bo'layotgan vaziyatlarda, ularning oldini olish va harakat qilish

davlat tizimining funksional va hududiy quyi tizimlari, korxonalar va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi bo'yicha mutaxassisliklari uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olish, bartaraf etishda tezkor harakat qilish, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, aholini, ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatishda hayot faoliyati xavfsizligi bilimlari va ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi 754-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi 171-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 208-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3030-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5066-sonli Farmoni.
10. R.X. Xaydarov, B.Y. Qurbonov, K.J. Shirinov. *Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash bo'yicha o'quv qo'llanma*. Toshkent, 2021.
11. M.X. Tojiyev, I. Nigmatov. *Hayot faoliyati xavfsizligi*. Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012.
12. O.R. Yuldashev, Sh.G. Djabborova, O.T. Xasanova. *Hayot faoliyati xavfsizligi*. Toshkent-Iqtisodiyot, 2014.

13. www.lex.uz

14. Ziyonet.uz